

ARAB TILIDAGI KINOYA VA ISTI'ORALARNI O'ZBEK TILIDA TARJIMA QILISHDA KOGNITIV EKVIVALENT YARATISH USULLARI

METHODS OF CREATING COGNITIVE EQUIVALENCE IN TRANSLATING ARABIC METAPHORS AND FIGURATIVE EXPRESSIONS INTO UZBEK

Toshmamatova Gulasal G'olib qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Tarjima san'ati – bu nafaqat bir tilning so'zlarini boshqasiga o'girish, balki mazmun, uslub, ma'no va konnotatsiyalarni hamda muallifning obrazli fikrlarini yangi tilda o'ziga xos yangi shaklda aks ettira olish jarayonidir. Xususan, kinoya va isti'ora kabi ifoda vositalari tarjimasida til tafakkuri va madaniy kodlarga bevosita bog'liq bo'lib, tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Bu jarayonda tafakkurni idrok qilish, so'z va iboralarni nafaqat ma'nosi, balki ularning berilgan kontekstda tutgan o'rni, matndagi estetik, emotsional, assotsiativ qatlamlarini to'g'ri ochish hamda o'zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish muhimdir. Bunda tarjimon har doim bir xil printsiplarga tayanmaydi, balki har bir matndagi hamda vaziyatdagi fikrning ohangini, mujassam semantik va kognitiv ishoralarni va o'ziga xos madaniy konnotatsiyalarni chuqur o'rganishini talab qiladi.

Kalit so'zlar: kinoya, isti'ora, tarjima, kognitiv ekvivalent, arab tili, o'zbek tili, madaniy kod, badiiy tasvir, semantik moslik, perifrasis.

ملخص: لا يقتصر فن الترجمة على نقل الكلمات من لغة إلى أخرى فحسب، بل يشمل أيضًا نقل المحتوى والأسلوب والمعنى والدلالات، بالإضافة إلى أفكار المؤلف المجازية إلى لغة جديدة في شكل جديد فريد. وترتبط ترجمة وسائل التعبير، كالسخرية والاستعارة، ارتباطًا مباشرًا بالتفكير اللغوي والرموز الثقافية، وتطرح على المترجم مهامًا معقدة. في هذه العملية، من المهم فهم التفكير، والكشف بدقة ليس فقط عن معنى الكلمات والعبارات، بل أيضًا عن موقعها في سياق معين، وعن الجوانب الجمالية والعاطفية والترابطية للنص، والاستفادة الكاملة من القدرات التعبيرية للغة الأوزبكية. وفي هذا السياق، لا يعتمد المترجم دائمًا على المبادئ نفسها، بل يتطلب دراسة متعمقة لنبرة الفكر في كل نص وموقف، وللدلالات الدلالية والمعرفية الكامنة، وللدلالات الثقافية الخاصة. الكلمات المفتاحية: السخرية، الاستعارة، الترجمة، المعادل المعرفي، اللغة العربية، اللغة الأوزبكية، الشفرة الثقافية، الصورة الفنية، المراسلات الدلالية، إعادة الصياغة.

Аннотация: Искусство перевода – это не только процесс перевода слов с одного языка на другой, но и процесс передачи содержания, стиля, смысла и коннотаций, а также образных мыслей автора на новом языке в уникальной новой форме. В частности, перевод таких средств выразительности, как ирония и метафора, напрямую связан с языковым мышлением и культурными кодами и ставит перед переводчиком сложные задачи. В этом процессе важно воспринимать мышление, правильно раскрывать не только значение слов и фраз, но и их место в заданном контексте, эстетические, эмоциональные, ассоциативные слои текста, а также в полной мере использовать выразительные возможности узбекского языка. При этом переводчик не всегда опирается на одни и те же принципы, а требует глубокого изучения тональности мысли в

каждом тексте и ситуации, присущих ему семантических и когнитивных сигналов и специфических культурных коннотаций.

Ключевые слова: ирония, метафора, перевод, когнитивный эквивалент, арабский язык, узбекский язык, культурный код, художественный образ, семантическое соответствие, перифраза.

Abstract. The art of translation is not only the process of converting words from one language into another, but also the process of reflecting the content, style, meaning and connotations, as well as the author's figurative thoughts in a new language in a unique new form. In particular, the translation of such means of expression as irony and metaphor is directly related to linguistic thinking and cultural codes, and poses complex tasks for the translator. In this process, it is important to perceive thinking, correctly reveal not only the meaning of words and phrases, but also their place in a given context, the aesthetic, emotional, associative layers of the text, and fully use the expressive capabilities of the Uzbek language. In this, the translator does not always rely on the same principles, but requires a deep study of the tone of thought in each text and situation, the inherent semantic and cognitive cues, and the specific cultural connotations.

Keywords: irony, metaphor, translation, cognitive equivalent, Arabic language, Uzbek language, cultural code, artistic image, semantic correspondence, periphrasis.

Kinoya va isti'ora arab tilida juda rivojlangan, qadimdan she'riyatda ham, nasriy adabiy asarlarda ham keng ishlatiladi. Bunda kinoya, ya'ni satirik mazmun yoki ichki ramziy ma'no ikki qavatli semantik tuzilmani aks ettiradi. Isti'ora esa metafora kabi tasviriy vosita hisoblanib, so'z yoki iboraning haqiqiy emas, ko'chma ma'noda qo'llanilishi orqali tasvirlangan ob'ektga yangi fazilat, xususiyat, ruh va obraz beradi. Bu ikki vosita har bir tildagi tafakkur va madaniy-falsafiy olamida o'ziga xos aks etishi bilan ajralib turadi. Shu sababli arab tilida ishlatiladigan kinoya va isti'oralarning o'zbekchaga tarjima qilinishi, so'zma-so'z yoki ma'noga mos aylanmasdan, balki chuqur kognitiv yondashuvni, yangi tilda butunlay yangi ekvivalent yaratishni talab qiladi. Kognitiv ekvivalent yaratish, muayyan obraz yoki tasavvur tildan tilga o'tganda uning semantik, ramziy, madaniy va emotsional qatlamlarini saqlab qolishga harakat qilish demakdir. Arab tilidagi ko'plab kinoya va isti'oralarning o'zbek tilidagi ekvivalenti tayyor holatida mavjud emas. Shu bois tarjimon oldida ko'pchilik hollarda yangi usullardan foydalanish zarur bo'ladi, jumladan ekvivalentli ifoda topish, konstruksiya o'zgartirish, perifrasis ishlatish, yangi metafora ishlab chiqish, muallif uslubini his qilish va ayrim hollarda mualliflik so'z yasalishidan foydalanish – ana shu amaliy jarayon asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi [1].

Arab tilida kinoya va isti'oraning mustaqil rivojlanish yo'li bor. Bu ikki san'at yo'nalishi qadimiy asarlardan oq iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va falsafiy mazmunlarni chuqurroq ifodalash uchun keng qo'llanilgan. Bunda arab madaniyati va dunyoqarashiga xos obrazlar, ramzlar va assotsiatsiyalar kamol topgan. Har bir isti'ora yoki kinoya zamirida xalqning etnik mentaliteti, tarixiy tajribasi, e'tiqodi va orzu-umidlari mujassamlangan. Diniy, badiiy, falsafiy ko'rsatkichlar, me'yorlar, qadriyatlar muayyan so'z va ibora orqali ifodalanadi. Shu sababli arab tilidagi badiiy asarni tarjima qilayotganda, tarjimon oddiy grammatik vositalar yordamida emas, balki teran anglash

va tafakkur asosida yangi shakllar hamda soʻz oʻyinlariga asoslanib ekvivalent yaratishga majbur boʻladi. Birinchi yoʻl sifatida, oʻzbek tilida allaqachon mavjud ekvivalentlarga murojaat qilish mumkin. Yaʼni, agar arab tilidagi kinoya yoki istiʼora soʻzma-soʻz yoki maʼnodosh holda oʻzbek tilida mavjud boʻlsa, uni toʻgʻridan-toʻgʻri olib ishlatish mumkin. Biroq, koʻplab hollarda bunday toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalentlar mavjud emas. Bunday vaziyatda tarjimon kengroq perifraz vositalaridan, yaʼni mazmunini toʻliq ochish uchun koʻproq soʻz yoki ibora ishlatish, jumlaning tarkibini oʻzgartirish orqali muallif niyatini, obrazli maʼnoni saqlab qolishga harakat qiladi [2].

Keyingi asosiy usul – bu sunʼiy yoki yangi metafora, kognitiv ekvivalent yaratish hisoblanadi. Arab tilidagi istiʼorada ishlatilgan obraz, agar oʻzbek tilida unga mos semantik, emotsional va madaniy asos topilmasa, tarjimon baʼzan boshqacha yangicha obraz ishlab chiqishiga toʻgʻri keladi. Bu oʻrinda oʻzbek xalqining dunyoqarashi, madaniy anʼanalari va real hayot voqealariga asoslangan yangi tasvir tanlanadi va asosiy maqsad arabcha istiʼoraning maʼno va tafakkurini asosiy ideya sifatida oʻzbek tilida yashatib berishdan iborat boʻladi. Yana bir samarali yondashuvlardan biri – kontekstual yechimdan foydalanishdir. Arab tilidagi har bir kinoya yoki istiʼora har doim ham mustaqil aloqaga ega boʻlmasligi mumkin. Ularning pragmatik va konnotativ maʼnolari koʻpincha matndagi boshqa elementlar bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Shu bois, tarjimon badiiy asarning umumiy syujeti, personajlari, davr va voqea joyi kabi barcha omillarni chuqur tahlil qilgan holda, kognitiv asoslangan ekvivalent topishga harakat qiladi. Bu yondashuv orqali matndagi semantik bir butunlik, kayfiyat, muallifning gʻoyasi saqlab qolinadi hamda yangi, kontekstga mos ifoda paydo boʻladi. Shuningdek, baʼzi hollarda arab tilidagi joʻn koʻchma maʼnolarga oʻzbek tilida toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalent topishning imkoni yoʻq. Chunki arab tafakkurida qatʼiyyamzli boʻlgan iboralar oʻzbek mentalitetiga bevosita mos kelmasligi mumkin. Bunday paytda tarjimon matnga izohli ifoda, ochiqlovchi soʻz va frazalarni kiritish yoki qisqa gaplar orqali obrazni kengroq tasvirlashga harakat qiladi; bunda ham muhim jihati – asarning badiiy va semantik qadriyatini asrab qolish hisoblanadi [4].

Kognitiv ekvivalent yaratishda, tarjimon arab tilidagi badiiy ifodaning asosiy semantik yadrosini urib turadigan elementlarni aniqlaydi, uning asosiy taʼsir va ohangini saqlaydi, lekin uni oʻzbek adabiy-lisoniy tafakkuriga moslashtirib, yangi konnotativ, emotsional va estetik ohang bilan ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan bu jarayon bir vositachilik emas, balki samarali ijodiy qayta yaratish hisoblanadi. Koʻplab arab adabiyotshunoslari va tarjima nazariyotchilari kognitiv ekvivalent yaratishda bir nechta asosiy yoʻnalishlarni ajratib koʻrsatadilar. Birinchidan, semantik adaptatsiya vositasidan toʻliq ishlatish, yaʼni kinoya yoki istiʼoradagi asosiy tasvir va oʻxshatishlarning asosini saqlagan holda, uni oʻzbekistonlik oʻquvchi idrokiga mos tarzda qayta qurish eng maʼqul usullardan biridir. Bunda tarjimon arab tili jamiyatida mavjud boʻlgan real obʼekt, voqea va holatlarni oʻzbek tilidagi kontekstga mos, oʻxshash yoki muvofiq elementlar yordamida ifodalaydi. Keyingi yondashuv – leksik-kombinativ vositalardan foydalanish, yaʼni arab tilida kinoya yoki istiʼorada ishlangan soʻz, ibora yoki figura oʻzbek tilida bir nechta soʻz yoki fraza bilan birikma holda ifodalanadi. Bu usul tarjimon oldida ijodiy tafakkur va asosiy maʼnoni toʻgʻri anglab

yetish talabini kuchaytiradi. Chunki har bir lisoniy obraz yoki semantik qatlam, uni idrok etgan jamoa tarixiy va madaniy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi [5].

Uchinchi yondashuv – mualliflik metonimiyasidan foydalanish. Ba'zan tarjima qilinayotgan matnda arab tillilar uchun tushunarli bo'lgan, biroq o'zbek o'quvchilari uchun yot, noodatiy yoki begona bo'lib tuyilgan obraz uchraydi. Tarjimon bunday holda namuna ko'rsatishi, ya'ni an'anaviy arab ramzi yoki kinoyani o'zbek realiyasidagi muayyan o'xshash fikr, qadriyat yoki obraz bilan almashtirishi mumkin. Bu ham o'qiluvchanlik, ham asarning badiiy-estetik tafakkurini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarjimada qadimiy yoki zamonaviy arab adabiyoti namunalaridagi kinoya va isti'oralarni o'zbek tilida zamonaviy zamirda yangicha yoki zamonga mos ohangda yetkazish ham dolzarb masalalardan sanaladi. Zero, zamonaviy o'zbek adabiy-ijtimoiy tafakkuri yangi metaforalarga, yangi badiiy obrazlar hamda innovatsion ifoda uslublariga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarjimon nafaqat semantik va grammatik jihatdan mos ekvivalentni, balki kognitiv va madaniy asosda ham yangi, boy ifodaviy qatlamga ega bo'lgan yangi matn yaratadi[6].

Kognitiv ekvivalent yaratishda tarjima nazariyasining turli yondashuvlari va tajribalari muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi bevosita har bir matnni so'zma-so'z yoki ibora-ibora tarjima qilib bo'lmasa-da, asosiy maqsad arab tilida ifodalangan kinoya va isti'oralarning emotsional, psixologik va mantiqiy asoslarini, muallif ruhiyatini va asarining badiiy ohangini o'zbek tilida qamrab olgan, o'zbekistonlik o'quvchi tafakkurida asliyatdagi kabi kuchli taassurot qoldiradigan tarzda yetkazishga intilishdan iboratdir. Bu borada, so'nggi yillarda tarjimonlar orasida aksar hollarda hamkorlikda ishlash an'anasi keng tarqaldi. Ya'ni, tarjimon tahliliy, interpretatsion va mantiqiy yondashuvlarda o'sha semantik yadro va metaforaning ta'sirini to'laroq qayta ishlab, madaniyatshunos, adabiyotshunos va lingvist ekspertlar ishtirokida yangi ekvivalentni ishlab chiqishga urina boshladilar. Bu esa tarjima mahsulining sifatini kuchaytirib, asar mazmunini ko'proq va ko'poroq qatlamlari bilan o'quvchiga yetkazish imkonini beradi. Har bir tarjimon o'z ishida kinoya va isti'ora sifatida ifodalangan ob'ekt va obrazlarni ko'pchilikka tushunarli, oson qabul qilinadigan va madaniy kodlarga mos shaklda yetkazish uchun, birinchi navbatda ulardagi asosiy semantik mazmun, ramziy ma'no, badiiy niyat va matndagi umumiy kayfiyatni aniqlab olishi kerak bo'ladi. Chunki kinoya va isti'orani so'zma-so'z yoki har doim izchillik bilan tarjima qilish mumkin emas. Bu esa tarjimondan ijodkorlik, teran ilmiy yondashuv, oraliq tafakkur va innovatsion ifoda usullarini talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arabchadan o'zbek tiliga kinoya va isti'oralarni tarjima qilish, yangi kognitiv ekvivalent yaratish – juda murakkab va bir necha bosqichli ijodiy jarayondir. Bu ishda eng asosiy talablar – badiiy asarning mazmun, uslub va semantik qatlamlarini to'liq qamrab olish, arab madaniyati va xalq tafakkuriga xos bo'lgan asliyat ramzlarini o'zbek o'quvchisi uchun ochiq va oson idrok etiladigan ifoda, yangi obraz, yangi badiiy ramzlar orqali yetkazish, muallif g'oyasi va individual ifoda usulini to'liq yetkazishga intilishdan iboratdir. Tarjimon bu jarayonda o'zbek tilining barchancha imkoniyatlaridan foydalanib, arab tilidagi badiiy tafakkur timsollarini yangi zamir va madaniy kod asosida qayta yaratishi, ularni zamonaviy, o'qiluvchan va idrokka moyil ifoda vositalariga aylantirishi lozim. Tarjima, xususan

kinoya va isti'oralarni o'zbek tilida yangi kognitiv ekvivalent sifatida yoshartirish, o'quvchi tafakkurini boyitish va to'laqonli qog'ozga ko'chirish esa faqat ilg'or kasbiy malaka, puxta ilmiy bilim va ijtimoiy-madaniy ongga asoslangan bo'ladi. Tarjimaning ana shu jihatlari va yondashuvlari kelgusi avlodlar uchun boy tajriba va ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aripov, S. (2012). Tarjima nazariyasi (qo'llanma). Toshkent: Akademnashr.
2. Fayziyev, J. (2023). Arab tarjimashunosligi tamoili. Mezhdunarodnyi nauchnyi jurnal, "Nauchnyi impuls", Aprel, 246–253.
3. Hamroyev, H. (1982). Milliy xos so'zlar-realiyar va badiiy tarjima. Tarjima madaniyati (maqolalar to'plami). Toshkent: Fan.
4. Jabborov, O. (2014). Arab tilining qisqacha lug'ati (5-jild). Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
5. Osipov, G. (2006). Sotsiologicheskii slovar' (1-jild). Moskva: M.V. Lamanosov nomidagi Rossiya davlat akademiyasi va Moskva davlat universiteti nashriyoti.
6. Quronov, D. (2010). Tarjima nazariyasi va amaliyoti (qo'llanma). Toshkent: Akademnashr.
7. Sadiqov, Z., & Davronova, D. (2017). Tarjimashunoslik terminlarining ruscha-to'liq til lug'at va muammolari. Toshkent: Akademnashr.